

Maks Veberning Legitimlik Nazariyasida Hokimiyat Turlari

Saypillayev Bexruz O‘tkir o‘g‘li
O‘zbekiston milliy universiteti
Siyosatshunoslik 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Maks Veberning legitimlik nazariyasiga asoslangan holda siyosiy hokimiyat turlarini o‘rganadi. Nazariyaning asosiy qoidalari, jumladan an’anaviy, xarizmatik va ratsional-huquqiy hokimiyat shakllari batafsil tahlil qilinadi. Maqolada nazariy asoslar zamonaviy siyosiy jarayonlar bilan bog‘lanib, ularning amaliy qo‘llanilishi va dolzarbligi ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo kontekstida misollar keltirilgan holda legitimlikning jamiyat barqarorligidagi roli baholanadi.

Kalit so‘zlar: Maks Veber, legitimlik nazariyasi, hokimiyat turlari, an’anaviy hokimiyat, xarizmatik hokimiyat, ratsional-huquqiy hokimiyat

Kirish

Siyosiy hokimiyatning tabiatini tushunish jamiyatning rivojlanishida markaziy o‘rin egallaydi. XX asrning buyuk sotsiologi Maks Veber o‘z ishlarida hokimiyatni nafaqat kuch sifatida, balki odamlarning ixtiyoriy itoat etishiga asoslangan tizim sifatida ko‘rib chiqdi. Uning legitimlik nazariyasi siyosatshunoslikning asosiy qismlaridan biri bo‘lib, hokimiyatning qonuniyligini ta‘minlovchi mexanizmlarni ochib beradi[1]. Bu nazariya orqali Veber hokimiyatni uchta asosiy turga ajratadi: an’anaviy, xarizmatik va ratsional-huquqiy. Ularning har biri jamiyatning o‘ziga xos bosqichlarida ustunlik qilishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi bugungi kun siyosiy jarayonlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Globalizatsiya va texnologik o‘zgarishlar sharoitida an’anaviy tuzumlar zaiflashmoqda, xarizmatik liderlar ko‘paymoqda, ratsional tizimlar esa yangi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu maqola Veber nazariyasini ushbu kontekstda qo‘llab, uning kuchli va zaif tomonlarini baholaydi.

Tadqiqot maqsadi – Veberning hokimiyat turlarini batafsil tahlil qilish va ularni zamonaviy siyosiy voqelikka moslashtirishdir.

Asosiy qism

Legitimlik tushunchasi siyosiy nazariyaning markaziy elementlaridan biri bo‘lib, hokimiyatning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Bu atama hokimiyatning qonuniyligini va fuqarolar tomonidan ijobiy baholanishni va ixtiyoriy tan olinishini ifodalaydi. Legitimlik kuchga asoslanmagan, aksincha, jamiyat a‘zolarining ichki ishonchi va qabuliga tayanadi. Agar hokimiyat legitim bo‘lmasa, u faqat majburiyat orqali saqlanib qolishi mumkin. Ammo bu holat uzoq muddatli barqarorlikka olib kelmaydi. Legitimlik – bu ishonch, hokimiyatni oqlash va qo‘llab quvvatlashdir[1].

Maks Veber bu tushunchani o‘zining sotsiologik ishlarida rivojlantirdi. Veberga ko‘ra legitimlik hokimiyatni oddiy kuchdan ajratib turuvchi asosiy omil. U empirik yondashuvdan foydalanib, jamiyatdagi haqiqiy holatlarni kuzatish orqali nazariyasini qurdi. Veber hokimiyatni sotsiologik nuqtai nazardan o‘rganib, uning legitimligini odamlarning subyektiv ishonchiga bog‘ladi. Agar odamlar hokimiyatni qonuniy deb hisoblasa u barqaror bo‘ladi. Bu yondashuv hokimiyatni nafaqat huquqiy, balki madaniy va psixologik jihatlarida ham ko‘rib chiqishga imkon beradi[6]. Veberning nazariyasi jamiyatdagi o‘zgarishlarni tushuntirishda samarali. Chunki u hokimiyatning evolyutsiyasini ko‘rsatadi.

Veberning metodologiyasida "ideal tip" tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Ideal tip – bu haqiqiy voqelikdan ajralgan. Ammo, uni tushunish uchun ishlatiladigan abstrakt model. U hokimiyat turlarini tahlil qilishda

qo'llaniladi. Har bir tur jamiyatdagi haqiqiy holatlarga yaqin, ammo to'liq mos kelmaydi. Masalan, ideal tip orqali Veber hokimiyatni uchta asosiy shaklda ifodalaydi. Ularni jamiyatning turli bosqichlarida ko'rish mumkin. Bu metod jamiyatdagi murakkab jarayonlarni soddalashtirib, tahlil qilishga yordam beradi[3].

Nazariyaning subyektivligi uning asosiy xususiyatlaridan biri. Veber legitimlikni odamlarning ishonchiga bog'laganligi sababli u madaniy va tarixiy kontekstga bog'liq bo'lib chiqadi. Bu esa nazariyani universal qiladi, ammo, ba'zi hollarda cheklovlar keltirib chiqaradi. Masalan, turli madaniyatlarda legitimlikning shakllari farq qilishi mumkin. Jamiyatdagi roli esa barqarorlikni ta'minlashda legitim hokimiyat ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi va o'zgarishlarga moslashishga yordam beradi[2].

Hokimiyat turlari. Maks Veber o'z nazariyasida hokimiyatni uchta asosiy turga ajratadi. Ularning har biri legitimlikning o'ziga xos asoslariga tayanadi. Bu turlar ideal tiplar sifatida taqdim etiladi ya'ni ular jamiyatdagi haqiqiy holatlarni soddalashtirib ko'rsatadi. Quyida ularni alohida tavsiflab, keyin qiyoslaymiz.

An'anaviy hokimiyat jamiyatning urf-odatlar va an'analarga asoslangan shakli bo'lib, unda legitimlik o'tmishdan meros qolgan qoidalarga bog'liq. Bu turda hokimiyat rahbari urf-odatlarining timsoli sifatida qabul qilinadi. Uning buyruqlari esa "har doim shunday bo'lgan" degan tamoyilga asoslanadi. Masalan, monarxiya yoki qabila tuzumlarida bu holatni ko'rish mumkin. Qirol yoki qabila boshlig'i oilaviy meros orqali hokimiyatga ega bo'ladi va odamlar unga itoat etishni odatiy hol deb bilishadi. Bu tizim statik xarakterga ega, o'zgarishlarga chidamli, ammo uzoq muddatda jamiyat rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin[6].

Xarizmatik hokimiyat rahbarning shaxsiy jozibasi va ilohiy kuchiga asoslanadi. Unda legitimlik rahbarning g'ayrioddiy qobiliyatlari orqali ta'minlanadi. Bu tur beqaror va inqilobiy xususiyatga ega. Odamlar rahbarga ishonishadi. Chunki u mo'jizaviy yoki buyuk ishlar qila oladi deb hisoblashadi. Tarixda bunday misollar ko'p. Xarizma rahbarning shaxsiga bog'liq bo'lgani uchun uning o'limi yoki zaiflashishi bilan hokimiyat inqirozga duch keladi va ko'pincha an'anaviy yoki ratsional shaklga o'tadi[5].

Ratsional-huquqiy hokimiyat qonun va byurokratiyaga asoslangan bo'lib, unda legitimlik rasmiy qoidalarga va malakaga bog'liq. Bu tur zamonaviy jamiyatlarda ustunlik qiladi. Rahbarlar saylov yoki malaka orqali tanlanadi, hokimiyat esa qonunlar bilan cheklanadi. Masalan, demokratiyalar yoki korporativ tuzumlarida bu holatni ko'rish mumkin, unda byurokratiya samaradorlikni ta'minlaydi. Biroq, bu tizim ruhsiz va mexanik bo'lishi mumkin, odamlarning hissiy bog'lanishini yo'qotishi ehtimoli bor.

Ushbu turlarni qiyoslaganda, ular orasidagi farqlar yaqqol namoyon bo'ladi. An'anaviy hokimiyat statik va madaniy merosga bog'liq bo'lsa, xarizmatik tur dinamik va shaxsiy kuchga tayanadi. Ratsional-huquqiy esa obyektiv qonunlarga asoslanadi. Xarizmatik hokimiyatdan ratsionalga o'tish inqilobdan keyingi davlat qurilishida kuzatiladi, bu jarayon jamiyatni barqarorlashtiradi. Biroq, zamonaviy dunyoda gibrid shakllar mavjud, masalan, xarizmatik elementlar ratsional tizimda qo'llanilishi mumkin[4].

Maks Veberning legitimlik nazariyasi siyosatshunoslik va sotsiologiyada katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, uning kuchli va zaif tomonlarini tanqidiy baholash zarur. Nazariyaning kuchli jihatlaridan biri uning universal yondashuvi. Hokimiyat turlarini ideal tiplar orqali tavsiflash jamiyatning turli bosqichlarini tushunishga yordam beradi. Bu empirik moslashuvchanlikka olib keladi, chunki nazariya haqiqiy voqealarni tahlil qilishda qo'llanilishi mumkin va jamiyat o'zgarishlarini bashorat qilishga imkoniyat yaratadi[2].

Biroq, nazariyaning zaif tomonlari ham mavjud. Subyektivlik uning asosiy kamchiligi. Legitimlik odamlarning ichki ishonchiga bog'liq bo'lgani uchun u obyektiv mezonlarsiz qoladi va turli madaniyatlarda farq qilishi mumkin. Bundan tashqari Veber gibrid shakllarni to'liq hisobga olmagan. Zamonaviy jamiyatda an'anaviy va xarizmatik elementlar ratsional tizim bilan aralashib ketishi odatiy hol. Ammo, nazariya bu aralashmani batafsil ko'rib chiqmaydi[4].

Zamonaviy qiyinchiliklar nazariyaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Raqamli jamiyatda legitimlik yangi shakllarga ega bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali "raqamli xarizma" paydo bo'lib, liderlar virtual joziba bilan odamlarni jalb qilmoqda. Bu holat xarizmatik hokimiyatni ratsional tizim bilan birlashtirib, yangi inqirozlarga olib kelishi mumkin[7].

Xulosa

Maks Veberning legitimlik nazariyasi siyosiy hokimiyatning mohiyatini ochib beruvchi muhim vosita bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada ko'rib chiqilganidek, nazariya hokimiyatni uchta asosiy turga ajratib, ularning legitimlik asoslarini tahlil qiladi. An'anaviy tur urf-odatlar orqali, xarizmatik tur shaxsiy joziba bilan,

ratsional-huquqiy tur esa qonun va byurokratiya yordamida jamiyatni boshqaradi. Bu turlar jamiyatning evolyutsiyasini ko'rsatib, hokimiyatning barqarorligi legitimlikka bog'liqligini ta'kidlaydi.

Nazariyaning kuchli tomonlari uning empirik moslashuvchanligida, ammo zaif jihatlari subyektivlik va gibrid shakllarni hisobga olmaslikda namoyon bo'ladi. Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar yangi qiyinchiliklar yaratmoqda, bu esa nazariyani takomillashtirishni talab etadi.

Takliflar quyidagicha: zamonaviy demokratiyalarda xarizmatik elementlarni ratsional tizim bilan birlashtirish legitimlikni mustahkamlashi mumkin, masalan, ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolar ishtirokini oshirish. Yangi g'oya sifatida "raqamli legitimlik" tushunchasini ilgari suramiz. Bu yerda hokimiyat virtual joziba va ma'lumotlar oqimi orqali ta'minlanadi. Bu esa kelajak tadqiqotlariga yo'nalish beradi.

Foydalanilgan Manbalar

- [1] Ergashev, I., Abdullayev, B., & Xudaynazarov, A. (2025). Siyosatshunoslikka kirish (1-qism). Ma'rifat.
- [2] Greene, A. R. (2017). A defense of Max Weber's standard of political legitimacy. *Analyse & Kritik*, 39(1), 83–106.
- [3] Peter, F. (2010). Political legitimacy. In E. N. Zalta (Ed.), *The Stanford Encyclopedia of Philosophy*. Stanford University.
- [4] Rigby, T. H. (1966). Weber's typology of authority: A difficulty and some suggestions. *Australian Journal of Politics and History*, 12(1), 5–15.
- [5] Spencer, M. E. (1970). Weber on legitimate norms and authority. *British Journal of Sociology*, 21(2), 123–134.
- [6] Weber, M. (1978). *Economy and society: An outline of interpretive sociology*. University of California Press.
- [7] Whimster, S. (2007). Does Max Weber's notion of authority still hold in the twenty-first century? *Journal of Classical Sociology*, 7(3), 339–357.